

## **Xabardorlik - hamkorlik talabi**

Institutimizning Qarshi filiali yaqinda tashkil etilgan bo'lsa-da, o'quv va pedagogik jarayon, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar borasida ijobiy natijalarga erishgani sir emas. Inson o'z farzandini bo'yi bastini, yutuqlarini ko'rib quvonadi. Undan xabar oladi, yo'l-yo'riq, maslahatlarini beradi, tajribalari bilan o'rtoqlashadi. Shunga tashbehona tarzda aytish mumkinki, institutimiz o'z filialidan, "farzand"idan xabar olib turishi tabiiy. Institutimiz rahbariyati nomidan borib xabar olish va o'quv jarayoni, ma'rifiy jarayon bilan tanishish ham an'ana tusini olayotgani quvonarlidir. Filialning o'quv va tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari Ubaydullayev Shavkat Rashidovich bilan birgalikda institutimizning Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori Ruzimurot Choriyev o'qituvchilar va xodimlar ishtirokida suhbat o'tkazdi.



**Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**